Zamonaviy ta'lim tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi shakl va vositalariga taalluqlidir.

“Sizning omadli raqamingiz” mashqi

Bunda har bir o'quvchi o'zi yaxshi ko'rgan raqamini aytadi va davriy jadvaldan foydalanib shu raqamdagi elementni topadi va gidroksidini yozadi.

“Anogramma” mashqi

Bunda o'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi, kartochkada metallarning nomlari chalkashtirib beriladi, o'quvchilar metal nomini topib, uning belgisini magnit doskaga yozadi, belgilangan vaqt ichida topshiriq bajariladi.



“Ha – Yo'q” o'yini


1. Metall atomi va kisloroddan iborat modda asoslar.
2. Asoslar tarkibidagi OH guruhi soni metall valentligini bildiradi.
3. Asoslar funksional guruhli moddalar.
4. Asoslarda H bo'lmaydi.
5. “NH₄ ioni + gidroksid” asosmi?
6. “Bariy (II) – gidroksid” to'g'rimi?

1	2	3	4	5	6
yo'q	ha	ha	yo'q	Ha	yo'q

“Bumerang” texnologiyasi bo'yicha tarqatma matn tarqatiladi. Ikki daqiqadan matn kaliti multimedia vositasida namoyish etiladi.

“Bumerang” jadvali

Mazmuni	kislorod	vodorod	suv	havo
Uning allotropik shakldoshi ozon deyiladi	+			
Uning grekcha “suv tug'diruvchi” nomini Lavuazyte bergan		+		
U 100°C da qaynab, 0°C da muzlaydi			+	
Uni 1774 yilda Pristli tajribalar orqali oldi.	+			



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiryushkin D.M. Metodika prepodavaniya ximii v sredney shkole M.: Uchpedgiz, 1958. 264s.
2. Kiryushkin D.M., Polosin V.N. Metodika obucheniya ximii. Uchebnoe posobie dlya pedinstitutov. M.: Prosveo'enie, 1970.278s.



О'QUVCHILARNING О'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA MASALALAR YECHISHNING ROLI

Bo'ronova Nigora Husniddin qizi

Toshkent shahar Chilonzor tumani

79-umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Телефон:+998909419102

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida 9-sinf kimyo darslarida qiziqarli masalalar yechish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Bunda kimyodan masalalar yechishning eng qulay usullaridan foydalanaish va o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini masalalar yechish orqali oshirishga ahamiyat qaratiladi.

Kalit so'zlar: eritma, katalizator, miqdor, foiz, mol, endotermik, ekzotermik, zichlik, bosim, temperatura, koefitsent, oksidlanish-qaytarilish.

Kimyo tabiat va jamiyatning rivojlanishidagi va bilishidagi umumiy qonuniyatlarni tasdiqlaydi.

Kimyoni chuqur bilish xalq xo'jaligining turli sohalardagi mutaxassislar uchun zarurdir. Kimyo fizika va matematika fanlari bilan bir qatorda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosini tashkil etadi. Tabiatda inson paydo bo'lishi bilan unda tabiatni, atrof-muhitni o'rganishi va undan foydalanish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Hayotning rivojlanishi insonning o'zi va atrof-muhitni o'rab turgan borliqni o'rganishga intilishi natijasida tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlar kelib chiqadi. Shunday aniq fanlar qatoriga kimyo fani kiradi, atrof-dagi barcha borliqni uni tashkiliy qismlarini moddalardan deb qaraydi. Moddalarni o'rganish bilan borliqni o'rganadi. Shu sababli kimyo moddalarni tarkibi, tuzulishi, xossalarni ularning bir turdan boshqa turga o'tishi sabab va qonuniyatlarini o'rganadigan fandır.

Kimyoning predmeti moddadir. Kimyo boshqa aniq fanlar: fizika, matematika, biologiya, geologiya va ijtimoiy fanlar: falsafa, ekologiya, iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganadi. Kimyoning fan sifatida shakllanishida va rivojlanishi quyidagi uchta tarkibiy qism:

- a. Kuzatishlar, tadqiqotlar, dalillar
- b. Tushunchalar, nazariyalar, qonunlar
- v. Amaliyot mushtarakligi mahsulidir.

Bu mushtaraklikning shunday sohalari borki, ular bilan bog'liq muammolarning yechimi tabiiy ravishda fizikaviy bilim, matematik fikrlash va hisoblash, biologik ma'lumot, iqtisodiy tushunchalarni talab qiladi. Shuning uchun, kimyoni o'rganishda yuqoridagi fanlarni bilish shart, kimyo fanidan shu kungacha olgan va hozir olayotgan bilim doiramiz qanchalik kengayib borsa, shu fan bo'yicha yana bilishimiz kerak bo'lgan muammolar shunchalik ko'payib boradi. Shunga asoslanib kimyo fanini o'rganishdan maqsad:

- Shu kungacha kimyo fanida mavjud bo'lgan tushuncha, nazariya va qonunlarni o'rganib, uning mohiyatiga yetish. Kimyoviy hisoblashlarni bajarish.
- Kimyoviy tajribalarni rejalashtirish, ularni amalga oshirish va bajarish uchun kerak bo'lgan moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha yetarli darajada ko'nikmalar oshirishdan iborat.
- Kimyoviy axborotlar yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash tajribasi va ko'nikmalariga ega bo'lish
- Olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida hamda kundalik hayotda talab darajasida

Kimyodan masalalar yechishning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilar masalalar yechish jarayonida modda va jarayonlar to'g'risidagi kimyoviy bilimlari mustahkamlanadi. Kimyoviy jarayonlarning borishi, undagi omillar (temperatura, bosim, katalizator va h.k.)ning ahamiyati to'g'risidagi fikrlari ortadi.

Kimyodan masala yechishni bilish o'rta maktab o'quvchilarining amaliy hayotda zarur bo'ladigan eng muhim malakalaridan biridir. Ba'zan, kimyoviy masalalar degan so'zdan asosan miqdoriy masalalar tushuniladi. Sababi amaliy hayotda shunday masalalar yechishga to'g'ri keladi. Ammo kimyo fanida sifatga oid masalalar kimyoviy tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlarga oid masalalar ancha katta ahamiyatga ega. Bu masalalar o'qituvchining o'quvchilar nazariy tayyorgarlik darajasini ancha oson bilib olishi, moddalar va ularning o'zgarishi to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlashi hamda chuqurlashtirishi, nazariy bilimlarni amalda tadbiiq etishi,



o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishi, o'quvchilarda kimyoviy tafakkur hosil qilishi uchun imkoniyat berdi.

O'quvchilar kimyoviy masalalarni doimo, dars davomida aniq ma'lum tartibda (asta-sekin murakkablashib boradigan sistemada) yechib borganlari taqdirdagina o'quvchilarda kimyoviy masalalar yecha bilish qobiliyatini muvoffaqiyat bilan hosil qilish mumkin.

Masala yechishning rivojlantiruvchi ahamiyati yuqori bo'lib, u o'quvchilarning kimyoviy bilimlarini shakllantiradi va rivojlantiradi, bilimdagi formalizmni yo'qotadi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Kimyodan masalalar yechish jarayonida muammoli o'qitishni amalga oshirish mumkin. Metodologik jihatdan qaralganda, bu holatda abstrakt tafakkurdan amaliyotga o'tish ta'minlanadi. Masalalar yechish kimyoni o'qitishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u bilimlarni mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Kimyoviy masalalar sifat va hisoblashga oid sinflarga bo'linadi.

Kimyoviy masalalar klassifikatsiyasining ba'zi variantlariga misollar keltiramiz:

1. *Miqdoriy masalalar*: Moddalarning formulalarini tuzish, valentligi asosida tuzish, kimyoviy tuzulish nazariyasi asosida tuzish, analizdan olingan ma'lumotlar asosida, elementlarning % bilan ifodalangan miqdoriga, moddalarning gazsimon holatdagi zichligi yoki og'irligiga qarab tuziladi.

2. *Formulalar bo'yicha hisoblash*: Moddaning miqdoriy tarkibini har xil ifodalarda hisoblash, moddaning miqdoriy tarkibini shu moddadagi qo'shimchalarni hisobga olgan holatda topish, gazsimon moddalarning vodorodga nisbatan va havoga nisbatan zichligini topish, moddalarning molekulyar og'irligini topishdan iborat.

3. *Kimyoviy tenglamalar tuzish*: koeffitsientlar qo'yib tuzish, molekulyar va ionli ko'rinishda tuzish, oksidlanish-qaytarilish tenglamasi bo'yich hisob kitoblarni amalga oshirib tenglamalar tuzishdan iborat.

4. *Kimyoviy tenglamalar bo'yicha*: moddalar massasini saqlanish qonuni bilan bog'liq hisoblash, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning hajmi bilan ifodalangan miqdorini hisoblash.

5. *Eritmalarga doir hisoblar*: har xil temperturalarda, erigan modda va erituvchi niqdorlarini hisoblash, zarur bo'lgan konsentratsiyali eritma tayyorlash uchun, eritma konsentratsiyasining o'zgarishi bilan og'liq bo'lgan hisoblar.

Sifatga oid masalalar:

1. Moddalarni bilib olish: ayni moddaga xos reaksiyalar, moddaning qanday elementlardan tashkil topganligi.

2. Moddalarni tozalash: aralashmadan aytilgan moddani topish va isbotlash, aralashmadan moddaning o'ziga xos fizik va kimyoviy xossalari asoslanib ajratish.

3. Moddani hosil qilish: bir yoki bir necha moddadan, dastlabki moddalarni ketma-ket o'zgartirish yo'li bilan, maxsus asbobdan foydalanib modda hosil qilish.

4. Moddalarning klassifikatsiyasi: ayni bir sinfga kiradigan moddalarning A) empirik B) struktura formulalari, ayni bir sinfga kiradigan moddalar uchun xos reaksiyalar.

1. Kimyoviy tushunchalar, masalan: hodisala, aralashmalar va toza moddalar, oddiy va murakkab moddalar; molekula va atom, oksidlanish-qaytarilish, ekzotermik-endotermik va hokazo.

2. Davriy qonun va atomlarning tuzilishi: kimyoviy elementlarning xossalari davriy sistemadagi o'rniga qarab aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Raxmatullayev, H.Omonov, Sh.Mirkomilov. Kimyo o'qitish metodikasi.
2. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik.
3. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent-2006 -261 bet
4. I.R.Asqarov, K.G.G'opirov, N.X.To'xtaboyev. Kimyo 9-sinf darslik. T. 2019.
5. Uralova M., Davlatova G. Mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish.
6. Maktabda kimyo. Ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal 2(50)-son 2013 yil.
7. Imomqulov N., Abdullaev A. Fanlarni kompyuter yordamida o'qitishda modulli usuldan foydalanish // "Ta'limda yangi axborot texnologiyalari: muammolar, yechimlar". Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 1999. -184-185 b.
8. R.Avezov, M.Avezov. Qiziqarli kimyo. Toshkent-2004.-272 b
9. Internet ma'lumotlari: uzede.uz



TURMUSHDA KIMYO

Rajabova Zevarjon Komiljonovna

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi

45-sonli IDUMI maktabning

kimyo fani o'qituvchisi

+998943155578zevarjonrajabova@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu ilmiy maqola turmushda va barcha sohalarda, ko'proq ishlatiladigan moddalarni tarkibi, tuzilishi, xususiyatlari, ishlatilishi, olinishi, xossalari va ulardan to'g'ri foydalanish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar. Natriy xlorid, natriy karbonot, magniy xlorid, ichimlik sodasi, shakar

Bilamizki kimyoviy moddalar barcha sohalarda ishlatiladi. Tibbiyot sohasi, elektrotexnikada, mashinasozlikda, aviatsiyada zargarlikda, dehqonchilikda, kundalik turmushda doim kimyoviy moddalardan foydalanamiz. Kundalik hayotimizda ko'p ishlatiladigan moddalar osh tuzi, soda, ichimlik sodasi, sovun, shampun, atrlar, shakar, sirka kislota, yog kabi bir qancha moddalardan foydalanamiz: Jumladan, $NaCl$ –natriy xlorid (osh tuzi, tosh tuzi, galit). Xlorid kislotaning natriyli tuzi. Oq rangli, qattiq kristall modda, kubsimon kristall panjara tuzilishli. Suyuqlanish harorati 801° , qaynash harorati 1413° , Zichligi $2,161 \text{ g/sm}^3$. Suvda juda yaxshi eriydi. Natriy xloridni suvda eruvchanligi kalsiy xlorid, magniy xlorid ishtirokida pasayadi. Toza natriy xloridning gigroskopikligi oz, ammo aralashmalar ishtirokida (magniy tuzlari ishtirokida) uning gigroskopikligi juda ortadi. Tabiatda galit hoida dengiz suvida, shuningdek ko'pl suvlari tarkibida bo'ladi. Oziq ovqat va boshqa sanoat sohalarda, tibbiyotda, ro'zg'orda ko'p ishlatiladi. Undan o'yuvchi natriy, xlor, soda, natriy sulfat olishda foydalaniladi.

Na_2CO_3 -natriy karbonat (kalsinatsiyalangan soda) karbonat kislotaning natriyli tuzi. Kubsimon kristall panjara tuzilishli, rangsiz gigroskopik modda. Suvda eriganda issiqlik ajralib chiqadi. Suvli eritmada 32° da yirik tiniq $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ ko'rinishda, 35° dan yuqorida $Na_2CO_3 \cdot H_2O$, $112,5^{\circ}$ da suvsiz tuz kristallanadi. Natriy karbonat ochiq havoda saqlansa, CO_2 ni yutib uyushib qoladi. Soda-turli natriy karbonatlarning texnik nomi Na_2CO_3 (kalsinatsiyalangan soda), $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ (kristall soda), $NaHCO_3$ (ichimlik sodasi), bulardan tashqari $NaOH$ (kaustik soda) ham bor. Sanoatning ko'p sohalarida sodadan xom ashyo sifatida foydalaniladi. Soda tabiatda oz miqdorda uchraydi, unga bo'lgan sanoat ehtiyoji yuqori. Sodani sanoatda olish usulini ilk bor 1787-1789 - yillarda fransuz kimyogari Leblan ishlab chiqqan. U reaksiyani $NaCl \rightarrow Na_2SO_4 \rightarrow Na_2S \rightarrow Na_2CO_3$ bosqichlarda amalga oshirgan. $NaCl + H_2SO_4 = Na_2SO_4 + 2HCl$, $Na_2SO_4 + 2C = Na_2S + 2CO_2$, $Na_2S + CaCO_3 = Na_2CO_3 + CaS$ kabi jarayonlar bilan oladi. Bu usul tejimli bo'lmaganligi sababli Solve tomonidan ammiakli usul taklif etilgan. $NH_4Cl \rightarrow NH_3 \rightarrow NH_4HCO_3 \rightarrow Na_2CO_3$ kabi o'zgarishlar orqali oladi. Soda kundalik turmushda kir yuvishda suvni yumshatish uchun (kalsiy, magniy ionlarini bog'lashda) ishlatiladi. Kimyo sanoatida, shisha ishlab chiqarishda, yog' -moylarni gidrogenlashda, sovun olishda, sellulozadan qog'oz olishda ishlatiladi.

$NaHCO_3$ -natriy gidrokarbonat (ichimlik sodasi) karbonat kislotaning nordon tuzi. Karbonatlarga yoki gidroksidlarga suv ishtirokida CO_2 ta'sir ettirib olinadi. Ular qizdirilganda karbonatlarga aylanadi. $2NaHCO_3 \rightarrow Na_2CO_3 + CO_2 + H_2O$. Natriy gidrokarbonat, meda shirasida kislota ko'payganda, o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligida uni eritmali ichiladi oziq-ovqat sanoatida, nonvoychilikda ishlatiladi, choynak piyolalarni dag'allarini oqartirishda ishlatiladi.

Qand- $(C_{12}H_{22}O_{11})$ uglevodlar sinfining quyi malekulali vakili. Qamish shakari yoki lavlagi shakari deb atalgan saxaroza o'simliklar dunyosida juda ko'p tarqalgan. U qand lavlagida 16-20 % ni va shakarqamishda 14-20 % ni tashkil qiladi. Bundan tashqari upalma daraxtida, makkajo'xori tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi. Saxaroza eng zarur ozuqa bo'lib, inson hayotida katta ahamiyatga ega. Bu odatda ko'p qo'llaniladigan shakardir. Rangsiz kristall modda, uning suyuqlanish harorati 160° . Suyuqlantirilgan saxaroza amorf massa karamel hoida qotadi. Saxaroza oq kristall modda, glukozadan shirinroq, suvda yaxshi eriydi. Saxaroza gidrolizlanadi. $C_{12}H_{22}O_{11} + H_2O \rightarrow C_6H_{12}O_6 + C_6H_{12}O_6$. Kandalotchilikda, shirin murabbolar, suniy asal tayyorlashda ishlatiladi.

$C_{17}H_{35}COONa$ -stearin kislotaning natriyli tuzi (Xo'jalik sovuni).

Sovun suv bilan birga



tozalashda ishlatiladigan yuzaviy faol moddadir. Sovun qattiq yoki suyuq holatlarda ishlab chiqariladi. Sovun-tarkibida 8 tadan 18 tagacha uglerod atomi bo'lgan yuqori molekulyar yog, naften kislotalarining tuzlaridir. Yog'larni ishqoriy sharoitda parchalasak, glitserin bilan birga sovun olish mumkin. Bunda avval glitserin bilan karbon kislota hosil bo'ladi, aralashmada ishqor ham bo'ladi, natijada kislotalar ishqorlar bilan ta'sirlashib tuz hosil qiladi, aynan shu natriy ishqori asosida olingan sovun qattiq sovun hisoblanadi. Natriy tuzlaridan atir sovun, kir sovun tayyorlanadi, ular hidsiz, rangsiz bo'ladi. Hid va rang berish uchun ularga bo'yovchi va hid beruvchi qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi. Agar yog'larni gidrolizlashda natriy ishqori o'rniga kaliy ishqori ishlatilsa suyuq sovun hosil bo'ladi. Sovun ishlab chiqarishda ko'p miqdorda xomashyo talab qilinadi, shu sababli sovunlarni ovqat bo'lmaydigan mahsulotlardan olish masalasi qo'yilgan. Sovun ishlab chiqarish uchun zarur karbon kislotalar parafinni oksidlab olinadi. Sovun ham qattiq suvda kirni yaxshi ketkazmaydi, buning uchun soda yordamida suvni yumshatish lozim yoki sintetik yuvish vositalaridan foydalanish lozim. Ma'lumki, kir kiyim-kechak va boshqa materiallarda turli yog'lar boladi. Bunday materiallar suv bilan yuvilganda toza bo'lmaydi, chunki kir tarkibidagi yog'lar hollanmaydi. Sovun bilan yuvilganda sovunning tortadigan qism (yani karbosil guruh) kir tarkibida yog'larni hollaydi. Natijada materialdagi kir sovun eritmasi bilan emulsiya hosil qiladi va suv bilan oson yuviladi.

CH_3COOH —sirka kislota. Bu kislota odatdagi temperaturada – o'ziga xos o'tkir hidli, rangsiz suyuqlik. $U=6,6^\circ$ dan past haroratda muzga o'xshash kristallar holida qotadi, shu sababli muz sirka kislota deyiladi. U suvda istalgan miqdorda eriydi, uning suvdagi 3-9 % li eritmasi sirka deyiladi va ovqatga qo'shish uchun ishlatiladi. 70-80 % li eritmasi sirka essensiyasi deyiladi. Sintetik usulda Kucherov reaksiyasi asosida olinadi. $\text{C}_2\text{H}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CH}_3\text{COOH}$. Sirka kislota turli maqsadlarda ishlatiladi. Bo'y oqlar, plastik massalar, murakkab efirlar, tola olishda, sirka kislotaning suvdagi eritmasi ta'm beruvchi va konservalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Adabiyotlar:

1. Kimyo.S.Masharipov, I.Tirkashev.
2. 9-sinf Kimyo darsligi



KIMYO FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSIYALAR

Xujaqulova Dilfuza Aslonovna

Navoiy viloyati, Navoiy shahar

8-axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan maktab

kimyo fani o'qituvchisi

Telefon: +998911471576

dilfuzakhujaqulova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo bog'liklikning ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: didaktika, pedagogika, fanlararo bog'liqlik.

Ulug' didaktiv Yan Amos Komenskiy takidlashicha, "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Shu o'rinda shuni aytish kerakki, fanlararo bog'liqlik g'oyasiga ko'proq e'tibor berishlik pedagoglar birga yondashib, uni ya'ni fanlarni umumlashtirishga hissa qo'shmoqliklari darkor. Tabiiy fanlar bo'lmish matematika, fizika fanlarini olib qarajak bu fanlar kimyo, geografiya fanlariga bog'liq jihatlari ko'p. Fanlararo bog'liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunokov va boshqa pedagoglar tomonidan ko'rib chiqiladi. Insonlar qadimdan kimyoviy moddalar va hodisalar bilan tanish bo'lganliklari tarixdan ma'lum. Kimyoning dastlabki rivojlanish davrlaridagi fikr, tasavvur, tadqiqotlar rivojlanishida ko'plab chet ellik olimlar bilan bir qatorda o'zbek olimlarining ham munosib o'rinlari bor.

O'zbekiston hududida yashagan xalqlar amaliy faoliyatida kon qazish, temir eritish, cho'yan ishlab chiqarish, shisha tayyorlash, spol buyumlar yasash kabi ishlar, kimyoviy moddalardan foydalanib tayyorlangan bezaklarlar, qog'ozlar, yozuvlar, attorlik buyumlari uchun zarur bo'lgan simob va uning birikmalari, efir moylari, surma, o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar keng qo'llanilgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Fag'ona viloyatining Quva tumanida tavvalud topgan, 797-865-yillarda yashagan qomusiy olim Ahmad Al Farg'oniy (Alfraganus) kimyoga oid dastlabki asarlardan bo'lgan "Kitob amal ar-rahomat" da u ming yildan ortiq davr davomida suv ta'siridan yemrilib ketmagan mashhur nilomer uchun tayyorlangan noyob qotishma tarkibini ham taklif etgan. 865-925-yillarda yashagan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (Rozes) kimyo va tabobatga katta hissa qo'shgan. U birinchi bo'lib kimyoviy moddalarni sinflarga ajratgan. Turli kasalliklarni o'simliklar bilan davolash haqida qimmatli tavsiyalarni yozib qoldirgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048-yillar) esa o'zining davrida ma'lum bo'lgan tog' jinslari, minerallar, metallar va ular asosidagi ko'plab boshqa birikma, qotishma, hosilalarni o'rganib, ularning qattiq xossalari haqida mashhur "Minerologiya" asarini yaratgan. "Kitob as-saydana" kitobida mineral dorilar haqida fikr yuritgan. "Haqiqiy olimlik, haqiqiy ijodkorlik - bu igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish, buni bilgan odam biladi, bilmagan bilib olishi zarur".

Aniq va tabiiy fanlar fizika, kimyo, biologiya, astronomiya fanlari matematika fani bilan chuqur va keng bog'liklari bilan qayt etib boriladi. Integrativ manbalarda hamma fanlar rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida hal qilinishi texnologik integratsiya asosga umumta'lim jarayonida kompyuterlashtirishga o'tish, dars jarayonlarini aktiv bo'lgan usulda o'qitish nazarda tutilgan.

Bunda pedagogik jamoada ijodiy o'sishning o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash jarayoni tushuniladi. Aniq va tabiiy fanlarda integratsion yondashuvda didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiiy aniq fanlarni bog'lash iqtidorli va intiluvchan o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Masalan, kimyo va geografiya fanlarini o'zaro bog'lash maqsadida quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltirish mumkin:

1. Kimyoviy elementlar davriy sistemasida shunday elementlar borki, ular qit'alar sharafiga nomlangan. Bunday elementlar-ameritsiy va yevropiylardir.

Glenn Siborg boshchiligidagi amerikalik olimlar yadro reaksiyalari yordamida sintez qilgan 95-elementni Amerika qit'asi sharfiga "ameritsiy" deb nomlashdi. 1896-yilda fransuz kimyogari E.Demorse o'zi kashf etgan 63-elementni grekcha "sigma" harfi bilan belgiladi. 1901-yilda bu



element Yevropa qit'asi sharafiga "yevropiy" deb ataldi.

2. Kimyoviy elementlar davriy sistemasida yana shunday elementlar ham borki, ular osmon jismlari nomi bilan bogliq. Masalan, geliy (grekchada "gelios"- "quyosh" degan ma'noni anglatadi), tellur (lotincha "telluris"-yer so'zidan olingan), selen (grekchada "selenus"-oy demakdir), uran, neptuniy, plutoni, palladiy (Pallada yunon afsonalaridagi donolik xudosi sharafiga nomlangan osmon jismi)

3. Ayrim kimyoviy elementlar mamlakatlar sharafiga nomlangan. Bular germaniy, fransiy, ruteniy, galliy (Fransiyaning qadimgi nomi Galliya bolgan) va bundan tashqari Amerikaning ayrim shtatlari, shahar va qishloqlar sharafiga nomlangan kimyoviy elementlar ham mavjud.

Bunday qiziqarli ma'lumotlarni darslarda va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kimyo va biologiya fanlari ham o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa bu organik kimyo kursida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, aminokislotalar, oqsil va uglevodlar, nuklein kislotalar mavzularini tushuntirish uchun o'qituvchidan biologiya fanini chuqurroq bilishini taqozo qiladi. Biologik bilimga ega bo'lmasdan turib bunday mavzularni o'quvchilarga tushuntirishning umuman iloji yo'q.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o'qitishda ko'p yillar mobaynida shakllangan usullarni qo'llashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish, ilm-fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish fanni o'zlashtirishda ijobiy natija beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. "Kimyo o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013.
2. Xoliqov A., "Pedagogik mahorat" Toshkent, 2016.



OKSIDLAR MAVZUSINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Norbekov Jasur Muhammadovich

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

84 – maktabning kimyo fani o'qituvchisi


+99893 157 71 70

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo darslarida oksidlar mavzusini o'qitishda qo'llash mumkin ayrim texnologiyalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: klaster, lotolar, qiziqarli mo'jizalar, sirli so'zlar.

Hozirgi kunda ta'limga berilayotgan e'tiborga binoan kimyo fanlarida tashkil etilayotgan har bir dars zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilmoqda. Shunga binoan maqolamizda biz sizga bir soatlik dars tarkibida qo'llash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasini taqdim etmoqdamiz.

Dars avvalida o'quvchilar 3 guruhga bo'lib olinadi.



1. "Klaster"

O'qituvchi doskaga doira rasmni chizadi va unga "Oksidlarning olinishi" deb yozadi. O'quvchilar kislorodning birikmalarini doiradan strelka chiqargan holda yozadilar va izohlaydi.

2. "Qiziqarli mojizalar"

Videoproektor yordamida o'quvchilarga yangi mavzuga oid oksidlarning olinishi haqida qiziqarli amaliy mashg'ulotlar ko'rsatiladi. O'quvchilar shu oksidlarning tabiatda qanday holatda uchrashini qisqacha izohlaydi.

3. "Sirli so'zlar" Ekranda mavzuga oid kimyoviy terminlar ko'rsatiladi va o'quvchilar tomonidan izohlash talab etiladi.

4. "Lotolar"

Bu usulga ko'ra turli shakllarda yozilgan savollar va ularning aralashtirilgan javob variantlari o'quvchilarga tarqatiladi. To'g'ri javoblarning tegishli joylarga qo'yish talab qilinadi. Bunda har bir qatordan bir nafar vakil doskadagi vazifani bajarayotganida o'qituvchi qolgan o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan savol-javob qiladi. O'tilgan mavzuni qanchalik o'zlashtirganini quyidagi tarqatma orqali bilib olamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiryushkin D.M. Metodika prepodavaniya ximii v sredney shkole M.: Uchpedgiz, 1958. 264s.
2. Borisov I.N. Kimyo o'qitish metodikasi. Pedagogika institutlari uchun darslik. T.: O'qituvchi, 1966.543b.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(21-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000